

Yer yuzidagi dinozavrlardan keyingi hayot



1. Dinozavrlar haqida nimalarni bilasiz?
2. Yirtqich va o'txo'r dinozavrlar nomini ayting. Ularning qanday o'xshash va farqli jihatlari bor?
3. Dinozavrlar bilan nima sodir bo'lgan?



Meteorit qulashi va iqlimning o'zgarishi natijasida deyarli barcha dinozavrlar qirilib ketgan bo'lsa-da, ularning ba'zi avlodlari hozirgi kungacha yashab kelmoqda.

Ular asta-sekin yangi yashash sharoitlariga moslashib borgan. Ba'zilar **qushlarga** aylangan. Masalan, hozirgi tovuqlar, tuyaqushlar va lochinlar dinozavrlarning uzoq qarindoshlaridir.

Yangi olamning asosiy hayvonlarini **sutemizuvchilar** – o'z bolalarini sut bilan boqadigan jonzorlar tashkil etadi. Ular dinozavrlar davrida ham mavjud bo'lgan, ammo juda kichkina bo'lib, inlarda yashagan. Dinozavrlar yo'q bo'lib ketgach, sutemizuvchilar kattalashib, rivojlanib, butun sayyorani egallay boshlagan.





Qanday jonzorlar quruqlikni egallagan?

Yerda quyidagi hayvonlar yashay boshlagan:

**XANJAR TISHLI
YO'LBARSLAR** – uzun
tishlari bo'lgan ulkan
mushuksimon hayvonlar.



GIGANT YALQOVLAR –
ayiq'larga o'xshash mo'ynali
katta hayvonlar.



MAMONTLAR – uzun
junli va qayrilgan so'yloq
tishli, filga o'xshash
ulkan hayvonlar.



OTLAR, BUG'ULAR, KARKIDONLAR, TUYALAR –
bularning barchasi asta-sekin sayyorani egallay
boshlagan.



Osmonda uchadigan qanday
jonzotlar qolgan?

QUSHLAR osmonda
uchadigan asosiy jonzotlar
bo'lib qolgan. Ular tezroq
uchish, yaxshiroq ov qilish va
oziqa topishni o'rganishgan.



Qanday jonzotlar suvda yashay boshlagan?



**TOSHBAQALAR,
KITLAR, DELFINLAR,
TULENLAR VA
MORJLAR** ilgari
to'rt oyoqli quruqlik
hayvonlari bo'lgan,
ammo vaqt o'tishi bilan
ular okeanda yashay
boshlagan.



Sutemizuvchilar asta-sekin Yer yuzidagi eng aqlli va hayotga tez moslashgan mavjudotlarga aylangan.

Ular orasida alohida guruh – **primatlar** (maymunlar) paydo bo'lgan. Ular daraxtlarga chiqishni, bir-birlari bilan o'ynashni, maxsus tovushlar va imo-ishoralar orqali muloqot qilishni yoqtirishgan.

Ba'zi olimlarning fikricha, insonning dastlabki ajdodlari millionlab yillar avval paydo bo'lgan. Dastlab ular maymunlarga o'xshash bo'lib, ikki oyoqda yurishgan, vaqt o'tishi bilan esa **mehnat qurollarini yasash, olov yoqish** va **uy qurishni** o'rganishgan. Shunday qilib, insoniyat tarixi boshlangan!

Odamlar boshqa mavjudotlarga qaraganda Yer yuzida yashashga yaxshiroq moslasha olgan.



Rasmlarga qarang. Yer yuzida yashagan dastlabki odamlarning hayoti haqida so'zlab bering.





Asta-sekin odamlar Yer yuzidagi eng **aql-idrokli mavjudotga** aylangan: ular **gapirish, uy-joylar qurish va turli izlanishlar olib borishni** o'rganishgan.

Yer yuzidagi hayot bugun ham o'zgarishda davom etmoqda. Ehtimol, kelajakda olimlar sayyoramiz o'tmishi haqida yanada ko'proq hayratlanarli faktlarni bilib olishar!



taxminan
300 000 yil oldin



XV asr



XIX asr



XXI asr



Vaqt o'tishi bilan odamlar qanday o'zgargan?



1. Dinozavrlar yo'q bo'lib ketgach, Yer yuzida qanday hayvonlar qolgan?
2. Qanday mavjudot Yer yuzida yashashga eng yaxshi moslasha olgan?
3. Dastlabki odamlar qanday kashfiyotlar qilishgan?
4. Qadimgi odamlar haqidagi ma'lumotlarni qayerdan bilishimiz mumkin?



Ijodiy topshiriq. Yerda hayot rivojlanishining turli bosqichlari haqida illustratsiya yarating va ular haqida ma'lumot tayyorlang (dinozavrlar, dastlabki o'simliklar, sutemizuvchilar rasmini chizishingiz yoki fotosuratlarini qirqib olishingiz mumkin).

